


## 2019-yil 1-sentyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 1979 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 934 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2078 ta (19,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 12820 tani tashkil etgan.






## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-sentyabr holatiga 12820 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,3 %ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,6 % savdo, 13,3 % sanoat, 10,2 % qurilish, 12,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,7 % tashish va saqlash, 1,3 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 24,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

|      | Umumiy soni, birlikda |                   | 01.09.2019 yil                                |                       |
|------|-----------------------|-------------------|---|-----------------------|
|      | 01.09.2018<br>yil     | 01.09.2019<br>Yil | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish<br>sur'ati, % | Jamiga<br>nisbatan, % |
| Jami | 10742                 | 12820             | 119,3   | 100,0                 |

shundan:

|  |      |      |       |      |
|--|------|------|-------|------|
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi                 | 1334 | 1588 | 119,0 | 12,4 |
| Sanoat   | 1256 | 1703 | 135,6 | 13,3 |
| Qurilish   | 982  | 1304 | 132,8 | 10,2 |
| Savdo  | 2836 | 3413 | 120,3 | 26,6 |
| Tashish va saqlash                                 | 581  | 608  | 104,6 | 4,7  |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 593  | 807  | 136,1 | 6,3  |
| Axborot va aloqa                                   | 162  | 172  | 106,2 | 1,3  |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 128  | 144  | 112,5 | 1,1  |
| Boshqa turlari                                     | 2870 | 3081 | 107,4 | 24,1 |

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3940 ta), Sirdaryo (2014 ta), Sayhunobod (1030 ta) va Guliston (978 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (287 ta), Sardoba (533 ta) hamda Oqoltin (557 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 11920 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1904 ta (19,0 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 26,3 % savdo, 13,5 % sanoat, 10,4 % qurilish, 11,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,3 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 24,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3696 ta), Sirdaryo (1825 ta), Sayhunobod (987 ta) Boyovut (931 ta) va Mirzaobod (899 ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Shirin shahri (259 ta), Sardoba (513 ta) hamda Oqoltin (524 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


### Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-avgust oylarida 1979 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 89,4 %ga ko'pdir.

### Yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Guliston shahri (521 ta), Sirdaryo (309 ta), Boyovut (156 ta) va Guliston (155 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (37 ta), Xovos (120 ta) hamda Oqoltin (126 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (635 ta), sanoat (422 ta), qurilish (246 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (233 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (16 ta), axborot va aloqa (18 ta) hamda tashish va saqlash (36 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
korxona va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**Tijorat korxonaları**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-sentyabr holatiga 9839 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 2804 ta, oilaviy korxonalar - 149 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 6578 ta va boshqalar 308 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat  
ko`rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiyl soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**

2019-yil 1-sentyabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 144 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 43 ta ga yoki 42,6 %ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-sentyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 144 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqorisi Sirdaryo (54 ta), Guliston shaxri (32 ta), Yangiyer shaxri (17 ta) va Sayhunobod (10 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami esa Guliston (1 ta), Shirin shaxri (4 ta), Oqoltin (3 ta) hamda Sardoba (4 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 99 tasi qo'shma korxonalar, 45 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




## Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxona va tashkilotlar soni, birlikda

|                          | Korxonalar<br>soni | Jamiga nisbatan<br>ulushi, % |
|--------------------------|--------------------|------------------------------|
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>144</b>         | <b>100,0</b>                 |
| Oqoltin tumani           | 3                  | 2,1                          |
| Boyovut tumani           | 7                  | 4,9                          |
| Sayhunobod tumani        | 10                 | 6,9                          |
| Guliston tumani          | 1                  | 0,7                          |
| Sardoba tumani           | 4                  | 2,8                          |
| Mirzaobod tumani         | 7                  | 4,9                          |
| <b>Sirdaryo tumani</b>   | <b>54</b>          | <b>37,5</b>                  |
| Xovos tumani             | 5                  | 3,5                          |
| Guliston shahar          | 32                 | 22,2                         |
| Shirin shahar            | 4                  | 2,8                          |
| <b>Yangiyer shahar</b>   | <b>17</b>          | <b>11,7</b>                  |

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-avgust oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 38 tani tashkil qilgan. Bu ko'satkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Guliston shahar (9 ta yoki jamidagi ulushi 23,7 %), Sirdaryo tumani (8 ta yoki 21,1 %) va Yangiyer shahri

(7 ta yoki 18,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Shirin shahar (2 ta yoki 5,3 %), Mirzaobod tumani (1 ta yoki 2,6 %) va Sardoba tumani (1 ta yoki 2,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-avgust oylarida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 2 ta, Turkiya Respublikasi - 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 11 ta, Qozog'iston Respublikasi - 5 ta va Koreya Respublikasi - 2 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-avgust oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (23 ta), savdo (9 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (3 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqada (1 ta) hamda qurilish (2 ta), tashkil etgan.


**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



**Kichik korxona va mikrofirmalar**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-sentyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'ssatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 9792 tani tashkil qilgan. Bu ko'satkich 2018-yil 1-sentyabr holatiga qaraganda 22,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'ssatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3190 tasi (32,6 %) Guliston shahri, 1566 tasi (16,0 %) Sirdaryo, 812 tasi (8,3 %) Sayhunobod hamda 740 tasi (7,6 %) Mirzaobod tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 9792 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3128 tasi (31,9 %) - savdo, 1584 tasi (16,2 %) - sanoat, 1235 tasi (12,6 %) - qurilish, 1376 tasi (14,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 749 tasi (7,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 546 tasi (5,6 %) - tashish va saqlash, 151 tasi (1,5 %) – axborot va aloqa sohasi, 95 tasi (1,0 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 928 tasi (9,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-avgust oylarida 1885 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,0 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahri (487 ta), Sirdaryo (304 ta), Boyovut (146 ta) va Guliston tumanlari (149 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (33 ta), Xovos (116 ta) hamda Oqoltin (118 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (635 ta), sanoatda (422 ta), qurilishda (246 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (233 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (16 ta), axborot va aloqada (18 ta) hamda tashish va saqlashda (36 ta) tashkil etilgan.


### Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-sentyabr holatiga 161 tani tashkil etib, ulardan 149 tasi yoki 92,5 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiyligi soni o'rtacha 39,6 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 49,0 % yoki 73 tasi sanoat, 16,1 % yoki 24 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,4 % yoki 23 tasi savdo, 12,1 % yoki 18 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,3 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 5,4 % yoki 8 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa tashish va saqlash, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

## 2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarini soni, birlikda

|                   | Korxonalar<br>soni | Jamiga<br>nisbatan<br>ulushi, % |
|-------------------|--------------------|---------------------------------|
| Sirdaryo viloyati | 68                 | 100                             |
| Oqoltin tumani    | 5                  | 7,4                             |
| Boyovut tumani    | 5                  | 7,4                             |
| Sayhunobod tumani | -                  | -                               |
| Guliston tumani   | 7                  | 10,3                            |
| Sardoba tumani    | -                  | -                               |
| Mirzaobod tumani  | 4                  | 5,9                             |
| Sirdaryo tumani   | 17                 | 25,0                            |
| Xovos tumani      | -                  | -                               |
| Guliston shahar   | 20                 | 29,4                            |
| Shirin shahar     | 1                  | 1,5                             |
| Yangiyer shahar   | 9                  | 13,1                            |

2019-yil yanvar-avgust oylarida 68 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 4,9 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Guliston shahri (20 ta), Sirdaryo (17 ta), Yangiyer shahri (9 ta) va Guliston tumani (7 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (1 ta) hamda Mirzaobod (4 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

## 2019-yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Sanoat



Savdo

Yashash va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlarQishloq, o'rmon va  
baliq xo'jaligi

Boshqa turlari

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 67,6 % yoki 46 tasi sanoat, 7,4 % yoki 5 tasi savdo, 8,8 % yoki 6 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 14,7 % yoki 10 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 1,5 % yoki 1 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Sirdaryo viloyati statistika  
boshqarmasi statistik registrlarni  
yuritish bo'limi Tel.:67-225-31-00